



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## TURIZM SOHASIGA OID LEKSIKANING MAVZUIY GURUHLARI TAHLILI VA TASNIFI

**Abduxalilova Gulbahor Karabayevna**

Uzbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili funksional leksika kafedrasida katta o'qituvchisi  
[abdukhalilovagulbahor@gmail.com](mailto:abdukhalilovagulbahor@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179226>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola turizm sohasiga oid leksikaning mavzuiy guruhlarini, ularning tahlili va tasnifiga bag'ishlangan bo'lib, maqolaning kirish qismida muallif turizm qanday soha ekanligi, uni mamlakat istiqboli va kishilar hayotida tutgan o'rni haqida fikr yuritgan. Shuningdek, turizm sohasi leksik tizimining tarkibiy qismini o'rganish zarurati haqida va tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari borasida mulohaza yuritilgan. Maqolaning asosiy qismida, ilmiy izlanishlar jarayonida o'rganilgan bilimlar gastronomiya va xordiq sanoati sohalari misolida yoritilgan. Unda muallif turizm sohasi qator ichki turlarga ega bo'lganligi bois, mazkur soha terminosistemasining ham ichki mavzuiy guruhlarini farqlanishini misollar bilan asoslab bergan. Maqolaning xulosa qismida turizm sohasiga oid leksikaning tematik guruhlariga ajratilishi leksikaning semantik ma'nolarini aniqlash va ularni tasniflash imkonini berishi va bu jarayon turizmning xilma-xil sohalari qamrab olgan leksik birliklarning mazmuniy jihatdan aniq va to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi degan xulosaga kelingan.

**Kalit so'zlar:** turizm leksikasi, turizm terminlari, mavzuiy guruhlar, tasnif, kichik guruhlar, tasniflash, turizm sanoati, sayohat, safar maqsadi, leksik birliklar.

**Kirish.** Keyingi yillarda soha leksikasi, jumladan terminologiyaga qiziqishning kuchayishi tegishli soha rivojlanishi bilan belgilanadi. Zero, terminologiya har qanday ilmiy yoki texnik sohaga kirib borish va u yerda o'z o'rnini topish uchun asosiy vositadir. Shu sababli, soha leksikasi va terminologiyaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, sohani rivojlanishining muhim belgisi hisoblanadi. Buning natijasida, yangi atamalar va so'z birikmalari yaratiladi, mavjudlari esa qayta ko'rib chiqiladi va takomillashtiriladi. Bu jarayon, soha vakillarining bilim va malakasini oshirishga, ilmiy va amaliy faoliyatning samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

*Turizm* – (safari, sayr qilish, turizm). Dam olish, hordiq chiqarish, dunyoni ko'rish maqsadida qilingan safari<sup>1</sup>. Demak, sayohat so'zining umumiy ma'nosi insonlarning maqsadlari qanday bo'lmasin ko'chib yurishlarini anglatadi.

Turizm sohasi leksikasi tizimi tarkibini o'rganishda ularning mavzuiy guruhlar tasnifi masalasi muhim hisoblanadi. Zero, sohaviy leksika tasnifida ularning semantik tahlili va voqealanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada rus tilshunos olimi D.N. Shmelevaning fikrlari e'tiborga loyiq. Olimning fikricha, sohaviy leksikada mavzuiy guruhlarini tadqiqi umumlug'aviy shakllanish va

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбек миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 680.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

rivojlanish jarayonlarini ochib berishga katta hissa qo'shadi, terminologiyada mavzuviy guruhlarining ifodalanishi so'zlarning bir-biri bilan bog'liqligini, voqelikni o'zaro to'g'ri aks ettirishini aniqlashga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Terminshunos olim A.A. Reformatskiy terminologiyadagi guruhlanish fan yoki sohaning tizimidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi va alohida paradigmaticani hosil qilishi xususida fikr yuritgan<sup>3</sup>. O'zbek tilshunosi R. Doniyorov sohaviy leksika ya'ni terminologiyada mavzuviy guruhlarini aniqlashda quyidagi maqsadlarga erishilishini ko'rsatadi:

- o'rganilayotgan tizimning umumtermin boyligi haqida tassavur hosil qilish;
- o'rganilayotgan tizimning so'z yasash imkoniyatlari haqida ma'lumot berish;
- o'rganilayotgan tizimning har qaysi mavzuviy guruhdagi o'ziga xos so'z yasash modeli qanday ekanligini aniqlab berish<sup>4</sup>.

E. Begmatovning fikriga ko'ra so'zlarni mavzuviy guruhlariga ajratish, guruhlarining soni, boyligi yoki qashshoqligi til materialidan kelib chiqadi. So'zlarning ko'pchilik mavzuviy guruhlari (masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari yoki qon-qarindoshlik terminlari va boshqalar) ko'pgina tillarda uchraydi yoki ular uchun umumiydir. Lekin ayni vaqtda, bir tilda mavjud mavzuviy guruhlar boshqa tilda uchramasligi yoki torqoq bo'lishi mumkin<sup>5</sup>.

F. Qodirova "Sohaviy terminlarining mavzuviy tamoyillarga asoslangan tasnifini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday tasnif semantik o'xshashliklar asosida so'z va terminlarni ma'nosiga qarab tartibga solishga, umumiy terminlar maydoniga kiritilgan alohida guruhlar va kichik guruhlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga imkon yaratadi. Mavzuviy tasniflash terminlarning kichik guruhlardan iborat asosiy guruhlariga taqsimlanishi asosida amalga oshiriladi. Terminlarni bir guruhga jamlashda ular anglatgan predmetlar, hodisalar va jarayonlarning o'xshashligi yoki umumiylikiga e'tibor qaratiladi"<sup>6</sup> deya fikr yuritadi.

"Tarixiy yozuvlar. Konfutsiy oilasi"da aytilishicha, ko'ngilochar safarlar: "safari, ekskursiya, o'quv sayohatlari va boshqalar", "turlar" deb ataladi<sup>7</sup>. Sayohat

<sup>2</sup>Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). Наука, 1973. – М., 1973. – С. 9.

<sup>3</sup> Реформатский А.А. Термин, как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1968. – С. 102-105.

<sup>4</sup> Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 76-78.

<sup>5</sup>Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот технологиялари терминологияси ва лексикографик муаммолари. Филоло.ф.д..... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 22.

<sup>6</sup> Қодирова Ф. Ш. Кўрсатилган диссертация. – Б. 39.

<sup>7</sup>Русско-китайский-русский словарь, составленный научно исследовательским институтом//ред. Ван. Гуовой. - Пекин: Пекинская пресса для обучения и изучения иностранных языков. 2011. – С. 744.



## XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

so'zining ekvivalenti bo'lgan "tour" termini ham turizm sanoatida keng qo'llaniladi. Ko'p ma'nolilikni o'zida mujassamlagan "tour" termini bir necha xil turdagi sayohatlarni anglatishi mumkin.

Biror hududni aylanib chiqish va o'rganish maqsadidagi sayohat sightseeing tour – diqqatga sazovor joylarga sayohat, *guided tour – gid ko'magidagi sayohat, walking tour – piyoda sayohat, study tour – o'quv sayohati*;

*Sayohat, safar, sayr qilish* – turizmning asosiy xususiyati bo'lib, insonning madaniy va ruhiy ehtiyojlarini qondirish, yangi bilim va tajribalarni olish, dam olish va sog'liqni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turizm nafaqat shaxsiy, balki iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Turizm sohasida ish o'rinlari yaratilishi, infratuzilma rivojlanishi, mahalliy iqtisodiyotning yuksalishi va mamlakatning xalqaro miqyosda tanilishiga yordam beradi. Turizmning yana bir muhim jihati shundaki, u madaniyatlararo almashinuv va milliy merosning asralishiga hissa qo'shadi. Turistlar tashrif buyuradigan hududlarda tarixiy va madaniy obidalar, xalq an'analari va urf-odatlar saqlanib qoladi, bu esa mahalliy aholi uchun ham qimmatli tajriba bo'ladi.

Shuningdek, turizm tabiiy resurslarning asralishi va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bioxavfsizlik va bioturizm tushunchalari bu sohada katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular turistlar va mahalliy aholi uchun xavfsiz va sog'lom muhit yaratishga qaratilgan.

Shu tariqa, turizm nafaqat dam olish va zavq olish manbai, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ko'mak beruvchi omil sifatida ham ko'rilishi lozim.

Maxshur Amerika yozuvchisi Mark Tven sayyohatga shunday ta'rif bergan, "Sayyohat–xurofot, aqidaparastlik va tor fikrlash uchun xalokatli, shuning uchun ham biz Amerikalaliklar uchun u zarurdir. Butun umrini dunyoning bir go'shasida o'tkazgan odam hech qachon sabr-toqatga o'rganmaydi, hayotga keng va oqilona qaray olmaydi"<sup>8</sup>.


**Asosiy qism.** Bizning asrimizda shiddatli rivojlanishlar sabab turizm sohasi ham o'z safiga ko'plab boshqa tarmoqlarni qo'shib bormoqda, uning barobarida turizmning ko'lami kengayib safar maqsadi va xususiyatiga ko'ra turizmning yangi turlari paydo bo'ldi. Ma'lumot o'rnida turizmning quyidagi guruhlari mavjud va ular bir-biridan farq qiladi [Qarang. 1 – chizma].

<sup>8</sup> Марк Твен. Простак за границей или Путь новых паломников. – М.: Альюпина нон-фикшн, 2012. 1869. – С. 579. – 582 С.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



1– chizma. Turizm sohasi mavzuiy guruhlari

Chizmada keltirilgan turizm turlaridan ayrimlarini tahlil qilib chiqamiz. Masalan, **gastronomy tourism** (gastronomik turizm) – turistning sayohat vaqtida oziq-ovqat va unga tegishli mahsulotlar va oziq-ovqat bilan bog‘liq barcha turdagi faoliyatlarni kuzatishi, haqiqiy, an’anaviy va innovatsion oshpazlik tajribalarni o‘rganishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan uchrashish, oziq-ovqat festivallari va pazandachilik mahorat darslarida ishtirok etish kabi tadbirlarni ham o‘z ichiga oladi<sup>9</sup>. Jahon turizm tashkilotining turizm va raqobatbardoshlik qo‘mitasi gastronomik turizmni sayyohlik faoliyatining bir turi ekanligini, uning tarixi uzoq yillar davomida shakllangan bo‘lishiga qaramay, 2015-yildagina alohida tarmoqqa ajratdi<sup>10</sup>. *Alcohol tourism* – gastronomik turizm tarkibiga kirib, turli joylar va o‘zga mamlakatlarning alkogolli ichimliklarini iste‘mol qilib ko‘rish maqsadidagi sayohat: *welcome aperitif–chegirmali spirtli ichimliklarni taklif qilish, American plan–xonaning narxiga uch mahal ovqatlanish ham kiritilgan tarif, all-you-can eat buffets–Shvedskiy stol-bufet, busboy–ovqatlanadigan stolni tozalab tartibga keltirib turuvchi ishchi, bring your*

<sup>9</sup> <https://www.unwto.org/gastronomy-wine-tourism> (Murojaat sanasi: 15.07.2023)

<sup>10</sup> Narziyev M.M. Buxoro viloyatida gastronomik turizm klasterini shakllantirish imkoniyatlari//Iqtisodiyet va innovatsion texnologiyalar, Ilmiy–elektron jurnal. №00059, 3/2022.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

*own-spiritli ichimliklarni o'zi bilan olib kelishiga ruhsat berilishi, dish of the day-menyuda ko'rsatilmagan, kunning maxsus taomi, alcohol tourism-spiritli ichimliklar turizmi, gourmet restaurant-taomlari va xizmat ko'rsatish a'lo darajada bo'lgan restoran.* Yoki, **Leisure tourism** – hordiq sayohati bo'lib, kishilarning kundalik tashvishlardan biroz holi bo'lish maqsadida go'zal maskanlar, yoqimli restoranlar va sohil bo'ylariga borishi. *Shopping tourism* – turli xaridlarni amalga oshirish, *Urban tourism* – shahar sivilizatsiyasidan baxra olish maqsadidagi sayohatdir.

*Sport tourism* – sport musobaqalarida ishtirok etish, tomosha qilish va muxlis bo'lib qo'llab-quvvatlash uchun sayohat qilmoq. Yirik sport musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashrif buyuruvchilar o'yinlarda ishtirok etish va tomosha qilishdan tashqari dam olish va o'yin-kulgi bilan ham band bo'lishi mumkin<sup>11</sup>. Shu jihatdan sport turizmini hordiq turizmi deb ham atash mumkin.

*VFR tourism (V-visiting, F-family and F-friends)* – qarindoshlar va do'stlar bilan ko'rishib birga dam olish maqsadida, odatda dam olish kunlari amalga oshiriladigan sayohat: *amenities - dam olish uchun qulay sharoitlar, gratification travel-mazza qilish, qoniqish sayohati, metaverse travel-virtual sayohat, reduce stress levels- asabiylikni kamaytirish, daily routine-kundalik yumushlar, beach tourism-sohil turizmi, leisure industry-hordiq sanoati, scenic view-go'zal manzara, skyscrapers-osmono'par binolar, shore excursion-qirg'oq bo'ylab sayohat, duty free shopping-bojhona to'lovidan holi haridlar*, kabi lug'at so'zlardan tarkib topgan.

**Xulosa.** Shunday qilib, turizm sohasi qator ichki turlariga ega bo'lgani bois, mazkur soha terminosistemasining ham ichki mavzuviy guruhlarini farqlanadi. Soha leksikasi terminlarining mavzuviy tasnif asosida o'rganilishi terminlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, turizm sohasiga oid leksikaning tematik guruhlariga ajratilishi leksikaning semantik ma'nolarini aniqlash va ularni tasniflash imkonini beradi. Bu jarayon turizmning xilma-xil sohalarini qamrab olgan leksik birliklarning mazmunini jihatdan aniq va to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбек миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 680.
2. Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). Наука, 1973. – М., 1973. – С. 9.
3. Реформатский А.А. Термин, как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1968. – С. 102-105.

<sup>11</sup> Rimantas Mikalauskas, Jurgita Kaspariene. Holistic approach about leisure industry. Transformations in Business and Economics 15(2)723-740. January 2016.



# XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 76-78.
  5. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот технологиялари терминологияси ва лексикографик муаммолари. Филоло.ф.д..... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 22.
  6. Қодирова Ф. Ш. Инглиз ва ўзбек тилларидаги тасвирий санъат ва дизайнга оид терминларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Фил.фан.б.фалсафа д-ри (PhD) дисс. Тошкент, 2020. – Б. 39.
  7. Русско-китайский-русский словарь, составленный научно исследовательским институтом//ред. Ван. Гуовой. - Пекин: Пекинская пресса для обучения и изучения иностранных языков. 2011. – С. 744.
  8. Марк Твен. Простаки за границей или Путь новых паломников. – М.: Альюпина нон-фикшн, 2012. 1869. – С. 579. – 582 С.
  10. Нарзиев М.М. Бухоро вилоятида гастронимик туризм класстерини шакллантириш имкониятлари//Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, Илмий-электрон журнал. №00059, 3/2022.
  11. Rimantas Mikalauskas, Jurgita Kaspariene. Holistic approach about leisure industry. Transformations in Business and Economics 15(2)723-740. January 2016.
- Internet sayti**
12. <https://www.unwto.org/gastronomy-wine-tourism>